

O'ZBEKISTON VA TOJIKISTON MADANIY ALOQALARI

Qoraboyev Zohid Bahodir o'g'li

Namangan davlat universiteti

Email: Zohidjonqoraboyev782@gmail.com

+998959007090

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16433121>

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida 1991-yildan beri mustaqil davlat bo'lib kelayotgan O'zbekiston va Tojikistonning mustaqillikdan to hozirgi kungacha madaniy sohada ikki davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar to'g'risida boradi. Ikki qardosh xalqimiz uzoq yillik qon qarindoshlik an'alariga amal qilib kelmoqda.

KALIT SO'ZLAR: Madaniy sohadagi aloqalarga qo'yilgan ilk qadamlar, madaniy aloqalardagi o'zgarishlar, "O'zbekiston va YuNESKO: Madaniy aloqalarning shakllanish tarixi va rivojlanish istiqbollari", yangi O'zbekistonning madaniy sohadagi islohotlari.

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются реформы, проводимые Узбекистаном и Таджикистаном в сфере культуры с момента обретения независимости в Центрально-Азиатском регионе в 1991 году. Наши два братских народа придерживаются давних традиций кровного родства.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: первые шаги в культурных отношениях, изменения в культурных отношениях, культурные реформы нового Узбекистана.

ANNOTATION. This article discusses the reforms carried out by Uzbekistan and Tajikistan in the cultural sphere since independence in the Central Asian region in 1991. Our two brotherly peoples have been adhering to the long-standing traditions of blood kinship.

KEYWORDS: the first steps in cultural relations, changes in cultural relations, cultural reforms of the new Uzbekistan.

Markaziy Osiyo mintaqasida XX-asr so'ngida misli ko'rilmagan darajada o'zgarishlar bo'ldi. Birgina misol SSSR parchalanganidan so'ng bir qator davlatlarning mustaqil davlat sifatida tashkil topishidir. Shu qatorda O'zbekiston va qardosh davlatlarning borligi insonni xursand qiladi. Mana shunday jarayonda o'zbek xalqiga munosib yo'l boshchi zarur edi. Tarix taqozosi bilan elim deb yashovchi Islom Karimovdek jasoratli inson 198-yil 23-iyunda O'zbekistonga rahbarlikka keldi. Mustaqilligimizga 34 yil to'lgan bo'lsada kami 100 yillik ishlar amalga oshirildi. Bunda ajdodlarimizning misli ko'rilmagan darajada hissasi bor. O'sha vaqtda hali ham "Paxta ishi", "O'zbeklar ishi" kabi uydirmalar bilan o'zbek xalqi nafsoniyatiga tegishi davom etardi. O'zbekistonning amalda mustaqillik sari tashlangan eng muhim qadamlardan biri O'zKP Markaziy Komitetining 1989-yil 25-noyabrdagi XVIII plenumida O'zbekiston hukumati avvalo respublika va o'zbeklar boshiga yog'ilayotgan malomat toshlariga chek qo'yish, "Paxta ishi", "O'zbeklar ishi" degan uydirmalarni bas qilish, Moskva matbuotida o'zbeklarning milliy nafsoniyatiga tegadigan chiqishlarni to'xtatish zarurligi uqtirildi. 1989-yil 21 oktabrda O'zbekiston Oliy Kengashning XI sessiyasi O'zbekistonning davlat tili haqidagi Qonunni qabul qildi. Ushbu qonunni qabul qilinishi o'zbek xalqining, respublikamizda yashovchi boshqa xalqlarning madaniy-ma'naviy va siyosiy hayotida ro'y bergan g'oyat muhim voqea bo'ldi.

Madaniy sohadagi o'zgarishlar haqida gap ketganda bu jarayon uzoq yillardan buyon mavjuddir. Ma'lumki, o'zbek va tojik xalqlarini ma'naviy, madaniy va diniy rishtalar bog'lab turadi. Ikki xalqning yashashi, an'analari, san'ati va urf-odatlarini bir-biriga uyg'un. Ko'p asrlik aloqalar umumiy tarixiy qadriyatlar bilan qo'shib, o'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi do'stona

munosabatlarni sezilarli darajada mustahkamlaydi. Xalqlarimizning Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, G'ofur G'ulom va Mirzo Tursunzoda kabi buyuk olim va mutafakkirlari ikki xalq o'rtasidagi do'stlik va o'zaro hurmatning yorqin misolidir. Bu an'ana O'zbekiston va Tojikiston rahbarlari tomonidan davom ettirilib, qo'llab-quvvatlanmoqda. Ularning siyosiy irodasi tufayli munosabatlar ikki tomonlama hamkorlikning barcha jabhalarini qamrab olgan holda, qayta tiklanmoqda. Madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlash shular jumlasidandir. [1.B-1.] Bir so'z bilan aytganda, axil qo'shnichilik, madaniy diplomatiya siyosati bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqaning tashrif qog'oziga aylanib bormoqda.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi Sharq madaniyati va merosini tadqiq etish ilmiy-tadqiqot markazida "O'zbekiston va YUNESKO: Madaniy aloqalarning shakllanish tarixi va rivojlanish istiqbollari" nomli ilmiy to'plam nashrdan chiqdi. BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha ixtisoslashgan tashkiloti YUNESKO dunyoda tinchlikni o'rnatish, qashshoqlikni yo'q qilish, barqaror rivojlanishni ta'minlash, ta'lim orqali madaniyatlararo muloqot tuzish, fan sohalarini rivojlantirish, xalqaro madaniy va ma'lumot almashinuviga yordamlashish kabi sohalarida faoliyat yuritadi.

Bu yil mamlakatimiz xalqaro maydonda yuksak obro' va nufuzga ega bo'lgan mazkur tashkilotga a'zo bo'lganiga 29 yil to'ladi. O'tgan davr mobaynida O'zbekiston bilan YUNESKO o'rtasidagi aloqalar, ayniqsa, madaniyat sohasida jadal rivojlandi. Xususan, yurtimizning boy madaniy merosini asrab-avaylashda ushbu tashkilot bilan yaqin hamkorlik o'rnatilgan.

YuNESKO ko'magida mamlakatimizda "Sharq taronalari", baxshichilik san'ati, hunarmandchilik festivallari, Maqom san'ati anjumani kabi qator yirik xalqaro tadbirlar tashkil etilayotganligi ham munosabatlarni yanada rivojlantirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur ilmiy maqolalar to'plami Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi "Sharq madaniyati va merosini tadqiq etish ilmiy tadqiqot markazi" tomonidan ilmiy-amaliy konferensiya materiallari asosida tuzilgan. To'plam O'zbekiston va YuNESKO munosabatlari va madaniy diplomatiyasi, tashkiliy-huquqiy jihatlar haqidagi, shuningdek, madaniy meros ob'ektlarini YuNESKO ro'yxatiga kiritish, saqlash, ularni olib chiqib ketilishi va olib kirilishi masalalari, xalqaro hamjamiyat va keyingi avlodga yetkazish, gender tengligini ta'minlashda YuNESKoning roli kabi ilmiy maqolalardan tashkil topgan.[3.B-1.]

Shu bilan birga mamlakatimizda madaniyat sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Buning isboti sifatida Yoshlar ijod saroyida "Xalqaro madaniy meros haftaligi" doirasida Madaniyat vazirligi tomonidan "Yangi O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasidagi islohotlar" mavzusida xalqaro forum bo'lib o'tdi.

Forumni madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov kirish nutqi bilan ochib berib, mavzu yuzasidan taqdimot qildi. Vazir o'z nutqida e'tirof etganidek, bizning ajdodlarimiz hamisha jaholatga qarshi ma'rifat bayrog'ini baland ko'tarib, o'z aql-zakovati va salohiyatini ilm-fan, madaniyat rivojiga bag'ishlaganlar. Bu tabarruk zamindan Xorazmiylar, Farg'oniy, Beruniy yoki Zamahshariylar o'z-o'zidan yetishib chiqmagan. Navoiy yoki Bobur Mirzo birdaniga buyuk shoir bo'lib tug'ilib qolmagan.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uza.uz/uz>
2. <https://oz.sputniknews>
3. O'zbekiston va YUNESKO madaniy aloqalarning shakllanish tarixi va rivojlanish istiqbollari. <https://tsuos>
4. Yangi O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasidagi islohotlar. <https://uza.uz>